

**Dilfuza Ismoilova Ibodullaevna**

*Surxondaryo viloyati Termiz pedagogika insitituti*

*Geografiya va uni uqitish metodikasi kafedrasи*

*O'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimizning go'zal go'shalaridan biri bo'lgan Boysundagi Omonxona shifobaxsh suvli bulog'i va u yerlardagi mo'jizalar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** turizm, omonxona, buloq, surxon vohasi,

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Omonxona bulog'i shifobaxshligi bilan allaqachon mashhur bo'lib ulgurgan. Chunki Surxon vohasidagi tabiat mo'jizalari doimo kishilarни hayratga solib kelgan. Deylik Termizda yoz chillasida qum ustida tuxum pishsa, Boysun tog'laridagi buloqlardan hosil bo'lgan daryolar suviga qo'l solsangiz muzlatadi. Shu ma'noda Boysun tumanidagi Omonxona bulog'i va undan sizib chiqayotgan shifobaxsh suvi haqida eshitmagan bir marta bo'lsada u yerga borishni niyat qilmagan kishilar torilmasa kerak. Buni o'ziga xos sabablari bor. Rivoyat qilishlaricha Amir Temur uzoq safarga otlanganda yo'lda askarlari og'ir dardga chalinibdi. O'shanda ular uzoq Boysun tog' yo'llari orqali haraktlanayotgan ekan. Shunda qo'shindagilarning ko'zi kimsasiz bir quruqlikdagi toshsoyabonga tushibdi. U yerdagi harsangtoshlar orasidan sizib chiqayotgan buloq suvidan ichgan askarlar o'zini rncha tetik va bardam sezibdi. Kasallikdan ham xolos bo'lishibdi. Shu-shu mazkur qishloqning nomi "Omonxon" deb yuritila boshlabdi. Har qanday rivoyatning zamirida haqiqat yotadi. Darhaqiqiat, Omonxona buloq suvi turli kasalliklarga, xususan jigar xastaligiga davo bo'lishi mutaxassislar tomonidan aniqlangan. Bu mo'jiza kishini o'ylashga majbur etadi. Qishloq ahli bitta Chag'at o'ngirida joylashgan. Uning zamini toba, ya'ni yirik yassi toshlar bilan qoplangan. Ana shu qattiq jismni yorib buloqlar ko'z ochgan. Bu chashma yaratganning irodasi emasmi? Chashmaning suvi kishi tanasiga singishi bilan bir qatorda, organizmni tetiklashtiradi. Omonxona suvini iste'mol qilgan qishloq ahli hozirgacha umuman yuqumli kasalliklarga chalinmagan. U yerdagi aholini yashash tarzi ham boshqalarnikidan ham farq qiladi. Keksa odamlarning ko'pligi, ularning uzoq umr ko'rishidan dalolat bersa, yoshlarni g'ayratini ko'rib ularda sog'lom hayot tarzining mavjudligini guvohi bo'lamiz. Chunki ular nafaqat yuqumli gepotit kasalligi hatto oshqozon ichak kasalligi bilan ham og'rimagan. Aksincha gepotitga chalingan jigar serrozi hayotiga chang solgan kishilar Omonxonadan najot izlashadi. Biz esa bunga aniqlik kiritish maqsadida ayni paytda yasharib-yashnab borayotgan ko'rakm qishloq tomon yo'l oldiq.

Mustaqidlik yillarida shifobaxsh qadamjolarga e'tibor kuchayganligi sababli ushbu ziyyaratgoh 1991-yil Boysun tumani hokimligi tomonidan obodonlashtirilgan. Shunga ko'ra Omonxona buloq suvi Toshkentdagi ilmiy tekshirish instituti tomonidan o'r ganilgan. Haqiqatdan ham tog' yon bag'ridan sizib chiqayotgan chashma o't mishda tillarda doston bo'lganligi isbotlangan. Biroq eski tariximizda bu tabiat mo'jizasini ko'pchilik tan olmay "eskilik sarqiti" deb qaragan. Omonxona suvi tarkibida magniy sulfat, ionlar mavjudligi, ular kishi salomatligi uchun foydali ekanligi aniqlandi. Bu jihat bilan horijdagi "Truskovets" suvidan ancha ustunligi ayon bo'lди.

2009-yildan boshlab ushbu shifobaxsh Omonxona ziyyaratgohida bunyodkorlik ishlari boshlandi. 2011 yilda dastlabki qurilish ishlarini O'zbekiston Temir yo'llari davlat aktsionerlik kompaniyasi 110 o'ringa mo'ljallangan sihatgoh qurilishini boshlab, 2014-yil yakuniga yetkazdi. Olis tog' qishlog'ida, keng yaylov bag'rida bunday inshootni barpo qilinishi kishini lol qoldiradi. Bu ikki qavatli shifo maskanida bemorlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sihatgohda bemorlar asosan tabiiy buloq suvi bilan davolanadi. Bu yerda shifobaxsh suvni iste'mol qilib, u yerda davolangan kishi o'zini baquvvat etadi. Omonxona suvi 30-40 metr pastlikda toshsoyabon tagidagi mo'jiza hisoblanadi. Ushbu maskanda tibbiyot sohasidagi muhim o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilayotganini guvohi bo'ldik. Shu bilan birga tibbiy madaniyatni oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish masalalarida o'nlab tadbirlar va targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Ochig'ini aytsam shifo maskanida tabiat mo'jizasi bo'l mish toshsoyabonga razm solsangiz yana bir bor lol qolasiz. Chunki harsangtoshlar havoda muallag' turibdi, eng mohir haykaltarosh ham undan nusxa olishga ojizlik qilsa kerak.


Odamlarga shifo ulashayotgan so'lim go'shadagi zamonaviy shifoxonaga har yili minglab odamlar sog'ligini tiklashadi. Ularga shifo ulashayotgan tog' bag'rida tabiatning yana bir tilsimi- g'aroyib g'or buloqdan uncha uzoq bo'lman balandlikda joylashgan ushbu g'orni mahalliy aholi "Omonxona Sovutgichi", deb ataydi. G'or tuynugidan odam tanasi biroz siqilib o'tadi. Uch metrcha chuqurlikdagi g'or ichkarisi keng, xuddi xonani eslatadi. Shu yerlik odamlarning aytishicha, yer qismi mayda tog' toshlaridan iborat bu xona yoz chillasida 5-6, qishda 20 darajagacha iliq bo'ladi. Shu bois, ko'p asrlardan buyon tevarak-atrof odamlari sariyog'ni shu g'orda saqlashga odatlangan.

Yo'lingiz tushib, Surxondaryo taraflarga kelib qolsangiz, Omonxonadagi mo'jizaviy shifobaxsh suvdan bahramand bo'ling. G'ayroyib g'orni ham tomosha qiling. Albatta. Hech afsuslanmaysiz. Mobodo, yoz chillasida salqin va barhavo g'orga tushsangiz, ko'nglingiz sust ketib, mahalliy aholi tomonidan qo'yilgan sariyog'dan bir chimdim bo'lsa-da, olib chiqishga urinmang. Aks holda, g'or tuynugi kutilmaganda torayib, tashqariga chiqishingizga yo'l qo'ymasligi ehtimoldan holi emas. Har qalay omonxonaliklar o't mishdan qolgan bu rivoyatga hozir ham qat'iy amal qilib keladi.

Omonxona bulog'i shifobaxshligi tufayli insonning o't pufagi, jigar va boshqa ichki organlarni yuvib, darddan foriq etishda zamonaviy tibbiyotdan qo'llanilayotgan

gemodezdan bir necha barobar avzal ekan. Omonxona shifo maskani may oyidan oktyabr oyiga qadar faoliyat yuritadi. Chunki qorli-qirovli kunnarda Omonxonada borishning o'zi bo'lmaydi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Suv sovuq, xonalarning isitish qiyin. Boz ustiga oromgoh binolari tog' yon bag'rida joylashgan. Endilikda hukumatimiz tomonidan ushbu ziyyaratgohga e'tibor kuchayotganligi sababli yil o'n ikki oyda ham insonlarni sog'ligini tiklashga sharoit yaratishga harakat qilinmoqda. Musaffo tog' havosidan bahra olayotgan odamlarning ruhi tetik, darddan holi bo'lib, yayaratganga shukrona qilishadi. Darvoqe darmon izlagan kishilar uchun manzilning uzoq-yaqini bo'lmaydi. Omonxonada bo'lganimizda geografik jihatdan mamlakatimizning shimoliy mintaqasi Qoraqalrog'iston respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlaridan har kuni bemorlar qabul qilinayotganligini guvohi bo'ldik. Chashmaning suvi madanli suvlardan avzalroq ekanligi insonlar tilida tan olinmoqda.

Omonxona ziyyoraigohi geografik nuqtai nazardan tahlil qilinganda manzarasi hech narsaga o'xshamaydigan musaffo tog' havosiga ega bo'lgan mikro iqlim mintaqasida joylashgan. Atrofni kuzatganingizda ko'rkar qiyofa kash etgan. Manzarali daraxtlar, rango-rang gulzor kishini o'ziga maftun etmay qolmaydi.



Ziyoratgohdan qatar chog'imizda tabiat mo'jizasi toshsoyabonlarga yana bir bor razm soldim va tabiat mo''jizasiga lol qolmaslikning iloji yo'qligiga amin bo'ldim. Lekin toshsoyabondan uzoqlashib tepalikka ko'tarilar ekanman hayolimni undanda ajib bir mo''jiza band etdi. Bu toshqoyalar bag'ridagi tepalikda buyodkor xalqimiz barpo etgan Omonxona shifo maskani ko'rinish turadi.

